

4. Фрумкина Р. М. Культурно-историческая психология Выготского-Лурия. Взгляд из сегодняшнего дня». «Человек» - М., 1999, № 3. – С. 35-46.
5. Шкурапий В. Н., Дубогрызова Г. Н. Роль телевидения в формировании духовно-нравственных ценностей старших дошкольников. // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 30. – С. 340–343.
6. Лысикова О.В. Имиджеология и паблик рилейшнз в социокультурной сфере: учебн. пособие. – М.: Флинта: МПСИ, 2006. – С. 75.

JAMOATCHLIKNING MEDIA SAVODXONLIGIGA FEYK XABARLARNING TA'SIRI VA TAHIDI

Behzod BERDIYEV

*Sanoat xavfsizligi inspeksiyasi
Axborot xizmati rahbari*

Annototsiya. Ushbu tezisda global axborot makonida keng tarqalgan soxta axborot va uning jamiyat media savodxonligiga salbiy ta'siri xususida so'z boradi. Shuningdek, mazkur tezis mavzusi yuzasidan xorij va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlaridagi fikrlar umumlashtirilib, mavjud muammo yuzasidan xorij vategishli taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: feyk, soxta xabar, jamiyat, ijtimoiy tasnif, axborot xavfsizligi.

Tabiatan ommaviy axborot vositalari hox u an'anaviy bo'ladim, raqamli bo'ladimi mohiyatan mamlakat aholisining xolis, to'liq va ishonchli axborot olish huquqini ta'minlashga qaratilgan. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari jamiyatdagi kayfiyat, qadriyatlar, axloqiy munosabatlar, ayrim siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hodisa va hodisalarga ta'sir qilish xususiyatiga ega. Ayni paytda, zamonaviy axborot texnologiyalari ommaviy auditoriyaga ta'sir o'tkazish uchun yangi va keng imkoniyatlarni taqdim etdi.

Shu ma'noda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va aholining yangiliklarni bir zumda olish zarurati bizni "tezkor yangiliklar" davriga olib kirdi. Bundan o'n yil avval jurnalist voqeа joyidan tahririyatga kelib, maqola yozishni boshlasa, faqat kamdan-kam hollarda favqulodda vaziyatlarda u jonli bo'lardi, hozirda bu holat deyarli tarixga aylandi. Zamonaviy jurnalistikada kim materialni birinchi bo'lib nashr etgan bo'lsa, u qidiruv

natijalarining yuqori qismiga kiradi, ko‘zatuvchi va foydalanuvchilar e’tiborini va yuqori iqtibos indeksini oladi, shuning uchun zamonaviy jurnalistikada yangiliklar ko‘pincha “tizza”da yozilib, istimolchiga birinchi manba sifatida taqdim etilmoqda va aynan shu nuqtada jamiyat axborot xavfsizligi ibtidosi, boshlanishini ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Hozirgi davrda zamonaviy jurnalistlar kuchli raqobat muhitida ishlashadi. Shu munosabat bilan ularning faoliyatining samaradorligi sifat mezonlari bilan emas, balki ma’lum bir voqeani birinchi bo‘lib kim yoritganligi bilan baholanadi. Bunday ish sharoitlari tabiiy ravishda taqdim etilgan ma’lumotlar darajasini, ob’yektivlikni va ko‘pincha ishonchlilikni pasaytiradi.

Birinchi bo‘lishga intilayotgan ayrim ommaviy axborot vositalari va asosan ijtimoiy tarmoqdagi kanal, guruh sahifalari xuddi tashlandiq stansiyalar yonidan o‘tib ketayotgan poyezdga o‘xshab, fakt-checking bosqichini o‘tkazib yuboradi, yangiliklarni tarmoqqa joylashtiradi, bu esa tarmoqda chaqmoq tezligida tarqaladi va oqibat sohta ma’lumotlar tarqalishi oqibatida jamiyatning axborot xavfsizligiga tahdid soladi. Achinarlisi bunday sohta yangiliklar uzoq vaqt internetdagi tarmoqlarda saqlanib qoladi. Bunday holatda sohta bo‘lgan ma’lumotlarni faqat rasmiy raddiyalar yordamida tuzatish mumkin bo‘ladi, bu ham bo‘lsa faqat tezkor amalga oshirishni talab qiladigan holatda bo‘lib, u qancha kechiksa shuncha jamiyat uchun xavf tg‘g‘dirishi va nazoratdan chiqib ketishi mumkin bo‘ladi.

Jamiyat axborot xavfsizligiga tahidlardan yana biri shundaki aynan ijtimoiy tarmoqlar va messengerlarning an’anaviy ommaviy axborot vositalarini o‘rnini egallashi va ba’zan ularning auditoriyasi, o‘quvchisi, ko‘zatuvchisi shu patgacha eng mashhur va obro‘li nashrdan ko‘ra kattaroqdir.

Ijtimoiy tarmoqlar va mesenjerlar endi aloqa va fotosuratlar almashish uchun axborot almashinuvchi platformalar emas, ular bugun jamoatchilik fikriga ta’sir qilish va nazorat qilishning kuchli vositalariga aylandi. Anonim telegram kanallari va boshqa ijtimoiy tarmoqdagi o‘zini OAV sifatida ko‘rsatuvchi, lekin OAV qonunlariga bo‘ysunmaydigan sahifalar ko‘pincha tasdiqlanmagan shaxsiy ma’lumotlar bilan

to‘ldirish barobarida soxta ma’lumotlar joylashtiriladi xatto ularning ba’zilari siyosiy mazmunga xam ega bo‘ladi.

Soxta xabarlar beparvo harakatlarga sabab bo‘ladi, odamlar salomatligiga tahdid soladi, jamiyatda notinchlik keltirib chiqaradi. Bu kabi tarmoqlardagi kontentlar asosan shaxsiyatga bog‘liq bo‘lgani bois mazmunan nazoratsiz va senzurasizdir bunday ma’lumotlarni inkor etish esa imkonsiz. Bunday faoliyatning maqsadi har xil bo‘lishi mumkin: auditoriyani oddiy jalb qilish va haypdan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni beqarorlashtirishgacha bo‘lishi mumkin. Ularning egalari o‘zlarining “shon-sharaf daqiqalari”ni olishni istagan xususiy shaxslar, yirik biznes vakillari, radikal muxolifat vakillari, xorijiy razvedka xizmatlari, terrorchilar va milliy xavfsizlikni beqarorlashtirishdan manfaatdor boshqa shaxslar bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy ommaviy axborot vositalari faoliyati kontekstida davlat axborot xavfsizligining asosiy ichki muammolari birinchidan, ko‘pincha tasdiqlanmagan va noxolis faktlarning nashr etilishiga olib kelinishi olidini olishi uchun “tezkor yangiliklar”ni tarmoqlarga joylashtirish zarurati, ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlarda ommaviy axborot vositalarining soni ko‘paytirish hamda tekshiruvlar asnosida tasdiqlanmagan ma’lumotlarni, taqiqlangan kontentni joylashtirishni nazoratsiz va jazosiz qoldirmaslik kerakki toki hech qanday nashrlar tahriri yati sohta xabarlarni o‘tkazib yubormaydigan darajada bo‘lsin.

Axborotdan g‘arazli foydalanish va uni manipulyatsiya qilish yangi hodisa emas, u qadim zamonlardan beri davom etib kelmoqda va fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida jamiyat o‘zgargan sari rivojlanib bormoqda. XVI-asrning boshlarida yashagan va ko‘plab olimlarning fikriga ko‘ra, jurnalistikaning otasi bo‘lgan yozuvchi Piyetro Aretino inkvizitsiya davrida mish-mishlar yordamida ijtimoiy va diniy murosasizlikni qo‘zg‘atgan; XVII asrda hukmronlik qilgan ingliz qiroli Charlz II hatto o‘scha davrlarda ham soxta xabarlar uchun jazo muqararligi haqida qonunlar to‘plamini ishlab chiqdi.[1] Yana bir misolda millatchilikni tashviq qilgan ko‘pchilikka ma’lum A. Gitlerni keltirsa bo‘ladi. Keltirilgan misollar ma’lum shaxslar va hokimiyat manfaatlari yo‘lida foydalanilgan tarixiy misollarning kichik namunasidir. Usullar, kanallar, texnikalar va

vositalar o‘zgaradi, lekin maqsad bir xil bo‘lib qoladi - o‘z manfaatlari yo‘lida haqiqat rasmini shubha ostiga qo‘yish. Bugungi kunda biz ushbu hodisaning yangi integratsiyalashuvini ko‘rmoqdamiz, chunki internetdan foydalanish imkoniyati o‘sib borishi barobarida, axborot makonining globallashuvi, manipulyatsiya harakatlari axborot maydonini to‘ldirdi va raqamli kontent yordamida raqamli media va ijtimoiy tarmoqlar orqali ular muntazam ravishda internet foydalanuvchilariga yetkazilmoqda.

Ommaviy axborot vositalari faoliyati kontekstida davlatning axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiy tashqi muammosi axborot urushlari bo‘lib, axborotni tarqatish natijasida jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish orqali qarama-qarshilik keltirib chiqarishni anglatadi.[2] Buni yaqin o‘tmishda AQSH va sobiq SSSR o‘rtasidagi sovuq urushdan bizga ma’lum. Ammo bu hodisa antik davrda paydo bo‘lgan - o‘sha qadim zamonlardan beri turli mamlakatlarda turli davrlarda dushmanni ruhiy tushkunlikka soladigan targ‘ibot kampaniyalari qo‘llanilgan.

Axborot makonining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi axborot urushining yangi shakli - gibridni keltirib chiqardi, unda beqarorlashtiruvchi va dezinformatsion kampaniyalar kiberjinoyatlar, xakerlik hujumlari va boshqa harbiy va noharbiy vositalar bilan birgalikda qo‘llaniladi. [3]

Ta’kidlash joizki, axborot urushi usullari mamlakat ichida ham masalan, aholi va biznesni beqarorlashtirishdan manfaatdor bo‘lgan muxolif partiyalarga qarshi kurashda, shuningdek, saylovoldi tashviqotlarida qo‘llaniladi. Bugungi kunda, hatto kichik mintaqaviy va shahar ommaviy axborot vositalari internetda mavjud bo‘lsa, har qanday mahalliy mojaro va to‘ldirish butun davlat barqarorligiga ta’sir qilishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalarida axborot urushining to‘rtta vositasi

Axborot urushining to‘rtta vositasi mavjud bo‘lib, bular yangi ommaviy axborot vositalari, tashviqot, soxta yangiliklar va ijtimoiy muhandislik davlatning axborot xavfsizligiga aniq va hozirgi muqarra tahdididir. Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalganligi va professional “axborot jangchilari” ning jalb etilishi bilan mustahkamlangan ular jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qiladi va ularni ushlab turish

va nazorat qilish deyarli mumkin emas. Bugungi kunda butun bot-fermalar faoliyat yuritmoqda, ularning maqsadi soxtakorlikdan iborat [4].

Vositalar	Maqsad	Usullar, kanal va vositalar
Yangi media	Ma'lumotni yetkazish va tarqatish	Saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, botlar, kichik bloglar, messenjerlar, trolllik ishi
Targ'ibot	Ma'lumotni boshqarish	G'oya, fikr, muhokama, ma'lumotlar bo'zish, ko'chlar namoyishi (foto, video), memlar, karikaturalar
Sohta xabarlar	Ma'lumotni boshqarish, muqobil voqeylekni kashf etish	Ma'lumotlarni sohtalashtirish, isbotsiz ayblov, uydirma, stereotiplardan foydalanish, vizual narsalarni sohtalashtirish, tarafkash harakati, notg'g'ri talqin.
Ijtimoiy muxandislik	Ma'lumot va boshqaruvga egalik qilish	Taqiqilangan ma'lumotga egalik qilish va uni OAV va ijtimoiy tarmoq kanallari orqali tarqatish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Архангельская И.Б. Фейк-ньюс в доцифровую и цифровую эпохи / И.Б. Архангельская, А.С. Архангельская // Знак: проблемное поле медиаобразования. – 2020. – № 3. – С. 97
2. Стратегические коммуникации в цифровую эпоху. Новые технологии / под ред. Л. С. Сальниковой. – М.: Научная библиотека, 2019. – С. 45.
3. Тиханычев О.В. Гибридные войны: новое слово в военном искусстве или хорошо забытое старое? / О.В. Тиханычев // Вопросы безопасности. – 2020. – № 1. – С. 30.
4. Четыре тысячи фейков о выборах появились в Сети за два месяца [Электронный ресурс]. – URL: http://rapsinews.ru/election_right_news/20210831/307336953.html /